

**G'ARB ME'MORCHILIGINING QADIMGI TARIXI HAQIDA MA'LUMOTLAR  
(QADIMGI RIM VA YUNON DAVLATLARI ARXITEKTURASI MIQYOSIDA).**

**Davlatov Diyor Dilshodovich**

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti  
Arxitektura(turlari bo'yicha) 1-kurs talabasi*

**Toshboyeva Hurshida Farhod qizi**

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti  
Arxitektura(turlari bo'yicha) 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Dunyoda inson qo'li bilan yaratilgan va necha ming yillardan beri saqlanib, o'z jozibasini yo'qotmay kelgan tarixiy obidalar ko'plab uchraydi. Har bir davlatning o'zining me'morchilik tarixi bor. Maqolaning asosiy mazmuni Rim va Yunon arxitekturasi tanishtirishdan iborat.*

**Kalit so'z:** *Me'moriy obidalar, arxitektura, order, Rim, Yunon.*

Me'morchilik xalq arxitekturasida bino va inshootlarning qurilish san'atini ifodalovchi atamadir. Me'morchilik bino va inshootlar qurilishning o'ziga xos texnikasini, san'atini, xalq tarixini, uning ijtimoiy-siyosiy qudratini, diniy va dunyoviy qarashlarini, madaniy-maishiy hayotini ma'lum shaklda mujassam etadi. Me'mor - binokor usta; bino va inshootlarning loyihasini yaratuvchi va ularning qurilishini nazorat qilib boruvchi bosh mutaxassisdir.

Antik dunyo deb, eramizdan avvalgi XII — VIII asrlardan boshlab eramizning IV — V asrlarigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga olgan Yunon (Gretsiya) va Rim sivilizatsiyasi davriga aytiladi. Antik Yunon arxitekturasi, asosan eramizdan oldingi VIII-I asrlarda rivojlanib, uchta davrga bo'lib o'rganiladi. Bular: arxaik, klassik va ellinistik davrlardir. Arxaik davri eramizdan oldingi III-V asrlarning boshlariga to'g'ri kelib, diniy va boshqa jamoat binolari turlarining shakllanishi bilan xarakterlidir. Ikkinchi davr o'z ichiga eramizdan oldingi 480-400- yillardan boshlab IV asrning oxirlarini olib arxitekturaning eng rivojlangan davri hisoblanadi. Uchinchi davr eramizdan oldingi 320- yillardan boshlab eramizning I asrigacha davom etib, Yunon-Sharq davlatlarining yuzaga kelishi va ellinisti madaniyatining Kichik Osiyo va Misr mamlakatlariga tarqalishi bilan xarakterlidir. Yunonlar fanning ko'pgina muhim tarmoqlariga (geometriya, mexanika va statika) asos solganlar. Bu esa muxandislik fanlarining rivojlanishiga olib kelgan. Muxandislik fanlarining yutuqlari esa dengiz qirg'oqlari inshootlari, shaharlar, ko'priklar, to'g'onlar va boshqa inshootlarda tadbiq etilgan. Asosiy qurilish materiallari bo'lib xom g'isht, pishgan g'isht, yog'och va monumental binolar qurilishida esa tabiiy tosh, ohaktoshlar xizmat qilgan. Ohaktoshlar juda ham yuqori darajada saqlanib, qorishmasiz, devor va ustunlar qilib terilgan. Ba'zi hollarda konstruksiyani bardoshlilikini oshirish uchun bu tosh bloklar

bir-biriga biriktirilgan. Ustun-to'sin konstruksiyalar yangi tektonik sistemaning yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Bu sistemaning yuzaga kelishiga asosiy sabab har tomonlama ratsional va badiiy jihatdan mukammal bo'lgankompozitsiyalarni yaratish bo'lgan. Sistemada har bir konstruktiv element va dekorativ bezaklar o'zining aniq va ma'lum joyini topgan. Sistema keyinchalik klassik orden nomini olgan. Qadimgi Yunon binolari va me'morchilik ansambillari. Qadimgi adimgi Yunoniston shaharlarining rivojlanishi asosan jamoat binolarining, birinchi navbatda ibodatxonalarining asosiy turlarining shakllanishi bilan bog'liqdir. Qadimgi yunonliklar ibodatxonalarni xudolarning uyi sifatida tasavvur qilganliklari uchun ularning shakllanishiga qadimgi turar-joy binolari katta ta'sir ko'rsatgan. Yunon uylari (megaron) xonadon (ichida haykali bor) va uning ldidagi ayvondan iborat bo'lgan. Arxitektura, qurilishining rivojlanishi va klassik orderlarning yuzaga kelishi ibodatxonalarining bir necha xil turlarda qurilishiga sabab bo'lgan. Yunon arxitekturasining rivojlanishi va uning yutuqlarini Afina Akropoli (balandlikda joylashgan shahar qal'asi, shaharning diniy-siyosiy markazi; uzunligi 300 m va eni 150 m ni tashkil etgan) misolida ko'rish mumkin. Bu qal'asimon ansambilning Parferon, Erexteyon va Niki Apteros ibodatxonalarining arxitekturasidan o'sha zamon klassik orderlari, binolar tektonikasi, qurilish texnikahaqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

**Rim me'morchiligi.** Qadimgi Rim arxitekturasining rivojlanishi ikkita asosiy davrga bo'linadi. Bular respublika va imperatorlik davrlari arxitekturalaridir. Eramizdan oldingi IV asrdan eramizning 30 - yillarigacha Rim respublikasi kichkina shahar – davlatdan jahon quldorchilik imperiyasiga, poytaxt Rim milliolar shahriga aylangan. Juda ko'p shaharlar, harbiy lagerlar, inshootlar, qal'alar, ko'priklar va yo'llar qurilgan. Keng savdo – sotiq va dengizga suzish, kemalarni qabul qiladigan qirg'oq inshootlari, omborxonalar, bozorlar, do'konlar va boshqa shunga o'xshash bin ova inshootlar qurilishini rivojlanishiga olib kelgan. Ibodatxonalar bilan birga jamoat binolariga forumlar, teatrlar, anfiteatrlar, sirkalar, termalar, devonxonalar, arxivlar, sud – majlislar o'tkaziladigan bazilika binolari misol bo'la oladi. Bundan tashqari, me'morial inshootlar – zafar arkalar, kolonnalar, maqbaralar va sag'analar qurilgan. Arxitekturaning nazariyasida arxitekturaning uch asosiy tomonini (mustaxkamlik, foyda va go'zallik) sintez qilgan holda me'morchilikni tushunish tavsiya etilgan. Qadimgi Rimda yunonlarga ma'lum bo'lgan, devor va ustun – to'sin konstruksiyalari ishlatilib rivojlantirilgan. Shu bilan birga, yangi arxitektura muammolariga javob bera oladigan shakllarini izlash rimliklarni arkalar va gumbazsimon konstruksiyalarni qo'llashga olib kelgan. Bu esa arxitekturaga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan. Qurilish materiallarining xilma - xilligi bilan Rim quruvchilari Yunonlardan ancha ilgarilab ketganlar. Eramizdan oldingi II asrlarda monolit devor va gumbazlarni ko'tarishning yangi texnikasi yuzaga kelgan. Bu davrda Rim beton (qorishma va mayda toshlar to'ldiruvchilar asosida tayyorlangan) keng qo'llanila boshlangan. Beton texnikasi gumbaz konstruksiyalarning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratgan. Ishni tashkil etish yuqori darajada amalga oshirilgan. Qisqa muddatlarda yirik inshootlar barpo

etilgan.

Orderlar va ularning devor va arka - gumbaz konstruksiyalari bilan birgalikda rivojlanishi. Rim arxitekturasida orderlar yuno orderlari asosida rivojlanib, badiiy bezaklarni asosi bo'lib qolavergan. Yunonistondan farqli, Rim arxitekturasida besh xil ko'rinishdagi orderlar ishlatila boshlangan.

**Xulosa.** Rim va Yunon arxitektrasi juda ham boy tarixga ega. Bu kabi davlatlarda millodan avvalgi yillarning o'zida ko'pgina dunyoni hozirgi kungacha hayratga solib kelayotgan me'morchilik inshootlari qurilgan. Bu kabi arxitekturasi rivojlangan davlatlar tarixini o'rganish me'morchilikni o'rganishda asosiy poydevorlardan biri bo'lib bizga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Архитектура гражданских и промышленных зданий. Учебник в 5 томах, том 1, История архитектуры. Гуляницкий Н. Ф. Москва. Стройиздат, 1986.
2. M.M.Vaxitov, Sh.R.Mirzaev Me'morchilik 1,2,3, qismlar. Toshkent, "Tafakkur", 2010
3. Ефимов А.В. и др. «Дизайн архитектурной среды»: Учебник для ВУЗов М. Архитектура -С, 2005.